

## **MUHAMMAD RIZO OGAHIYNING “TA’VIZ-UL OSHIQIN” NOMLI ASARINING TURK TILIGA ASL MANBALARDAN TARJIMA QILINISHI VA O’RGANILISHI.**

**Asadova Dilbar**

**Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti o’qituvchisi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.6645422>**

Annotatsiya.

Dunyo bo’ylab juda ko’p olimlar buyuk bobokalonlarimiz Mir Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Bobur, Husayin boyqaro va yana ko’plab shoirlarimiz haqida tadqiqot ishlari olib borishgan. Shu jumladan, mumtoz asarlar yozish bo’yicha Navoiydan keyin ikkinchi o’rinda turadigan Muhammad Rizo Ogahiy ijodini ham dunyo bo’ylab juda ko’plab olimlar o’rganishgan. Turkiya ilm odamlari ham bundan mustasno emas. Faqatgina adabiyot sohasida emas balki tarixni o’rganuvchi olimlar, iqtisodni o’rganuvchi olimlar ham Ogahiyning ijodi haqida bo’lmasa ham uning kim bo’lganligi, qanday ishlar qilganligi, yurtiga qo’shgan hissalar va tarixda qoladigan ishlari haqida juda ko’plab tadqiqot ishlari olib borishgan. Adabiyot yo’nalishida afsuski, Turkiya davlatining juda kam olimlari o’rganishgan. Ushbu tezisimizda Ogahiyning “Ta’viz-ul Oshiqin”, nomli asarining turk tiliga asl manbalardan tarjima qilinishi va o’rganilishi haqida tadqiqot olib boramiz.

Tayanch tushunchalar: Ogahiy, “Ta’viz-ul Oshiqin”, tarjima, asl manba, tarjima muammolari.

Biz bilamizki, bugungi kunda o’zbek mumtoz asarlarini juda ko’plab davlatlarda chop etishmoqda va bu asarlar yuzsidan tadqiqot ishlari olib borishmoqda deya bema’lol faxr bilan ayta olamiz. Chunki O’zbekiston ham dunyo miqyosiga asta sekinlik bilan chiqib kelayotgan mamlatlardan biri hisoblanadi. Xususan, Ogahiy asarlari ham Turkiyada o’rganilib borilmoqda. Turkiya Respublikasida juda ko’plab olimlar, tadqiqotchilar Ogahiy ijodini tadqiq etishmoqda. Bu tadqiqotchilar orasida Feridun Tekin ham bor. Professor o’zining doktorlik desertatsiyasini 2001-yilda Erzurumdagi Otaturk Universiteti Sotsial bilimlar tadqiqot insitutida “Ogahiy devoni (“Ta’vizu’l-oshiqin”) ning lisoniy xususiyatlari (Tovush va tuzilishi)” mavzusida olib borgan. Bu doktorlik desertatsiyasi 258 bet va 4 bo’limdan tashkil topgan. Bu desertatsiya ishiga to’xtaladigan bo’lsak, F. Tekin nafaqat Ogahiy devonini o’rganibgina qolmay uning shaxsiyatiga ham alohida to’xtalib o’tgan. Tadqiqot ishining kirish qismida XIX asr Chig’atoy adabiyoti va tiliga qisqacha to’xtalib o’tilgan. “Adabiyot tariximiz ichida bir qancha mahalliy va chet el Turkologlari tomonidan qilingan adabiy davr tasniflarida Ogahiyning asarlar yaratgan davri – Chig’atoy adabiyoti ichida “yiqilish davri (17-18 asr)”, “Mumtoz adabiyotni tugash davri (16-asrning

ikkinchi yarmidan 19-asrning oxirigacha)” deb qabul qilingan” – deya boshlangan ilmiy ishda Ogahiyning yashagan davri haqida soʻz borgan. Bu davrda mumtoz asarlar yozish urfdan qolib, zamonaviy asarlar yozishga oʻtilgan edi. Yaʼni mumtoz oʻzbekchada yangi oʻzbekchaga oʻtish davri boʻlgandir.

Bu haqda Turk yozuvchisi Fuad Koʻprulu ham fikr bildirgan: “Chigʻatoy tilining bu qadar keng sohalarda, madaniy til sifatida qoʻllanilishiga qaramasdan, Chigʻatoy adabiyotining XVII-XIX asrlar asnosida hech qanday buyuk shaxsiyat yetishtirilmaganligi va eski ustodlar biroz muvaffaqiyat bilan taqlitdan ilgari yurolmagan zayif sanʼatkorlar qoʻlida mutomodiy qaytish manzarasi yuzaga kelgani muhaqqaqdir. Garchi XIX asrda Hiva va Qoʻqon honliklarida, siyosiy va harbiy koʻtarilish harakatlari bilan birga, yetarlicha porloq adabiy gullab-yashnash koʻzga tashlanadi: oʻzlari ham sheʼrlar yozadigan honlar atrofida guruh-guruh shoirlar paydo boʻladi. Biroq bular faqatgina Navoiy va Fuzuliy kabi buyuk ustozlarning nazira va taqlidchilaridan iborat boʻlib, ichlarida original va qudratli bir shoirga, yaqqol koʻzga tashlanadigan adabiy shaxsiyat sohibiga tasodif etilmas va bu oʻsish manzarasi, yanada ziyodasi soʻnish arafasida turgan otashning soʻnggi olovidan boshqa narsa fikr etilmas” . .

Feridun Tekin tadqiqot ishining keyingi qismida Ogahiyning shaxsiyati va hayoti davomida qilgan ishlari haqida maʼlumotlar keltirgan. Soʻzni shunday boshlaydi: “Ogahiy XIX asrda Horazmda yashab, original asarlar yaratgan Oʻzbek ilm odamlarining eng ahamiyatlisidir. Unga “Ilm odami” sifatini berishimizning sababi, original asarlar yaratgani, shoirlik, tarixchilik va tarjimonlik yoʻnalishlarida faoliyat koʻrsatganidir.

Turk adabiyoti tarixi ichida “Chigʻatoy adabiyoti” termini bilan nomlandirilgan Oʻrta Osiyoda yetishib buyuk olimlar yetishtirgan bu adabiy muhitning Navoidan keyin eng koʻp va eng original asarlar yaratgan sanatkori Ogahiydir.”

Tadqiqotchi oʻz ilmiy ishida Fuad Koʻpruluning fikrlarini juda koʻp marotaba keltirib oʻtgan. Bundan koʻrinib turibdiki Fuad Koʻprulu Ogahiy ijodiga qiziqish bildirgan va u haqida izlanishlar olib borgan. U Ogahiy haqida shunday soʻzlarni yozib qoldirgan: “ “Miroblik” vazifasini bajargan vaqtda 1829-yilda vafot etgan Sher Muhammad Munisning oʻzidan keyin qoldirgan boʻshliq jiyani va talabasi Ogahiy tahallusli Muhammad Rizo tomonidan toʻldirdi. Amakisining oʻrniga tayinlangan bu qadrli shoir va muallif qiymatli sheʼrlardan boshqa, muhim tarixiy asarlar ham vujudga keltirgan. Mansur asarlarini huddi Munis kabi, goʻzal va puxta bir uslub bilan yozgan Ogahiy, ularni tez-tez sheʼriy parchalar bilan bezattish amakisidan ancha oldinlab ketgan. Nazim texnikasida tamomila hokim, qudratli bir shoir boʻlgan Ogahiyning ishq va sharob sheʼrlaridan boshqa,

shohnoma tarzida jang pallarini tasvirlagan she'rlar yozishda ham mahoratli ekanligi ko'rinib turibdi.”

Fuad Ko'pruluning Ogahiy bilan bog'liq qilgan bu izlanishlari o'z joyida va to'g'ridir. Chunki ilm odamlari Ogahiyning Navoidan keyin o'zbek adabiyotining eng buyuk tamsilchisi sifatida qabul qilingan.

F.Tekin Ogahiyning sanatini va adabiy shahsiyatini ko'rsatib berish uchun uning yoshligidan boshlab yozgan she'rlarini o'z ichiga olgan devonidagi she'rlarini tahlil qilgan.

Qadam aylabon ilm yo'lida bosh  
Hunar kasbida aylar erdim telash  
Ne tunlar mana hab-u rahat  
Ne kunlar zamoni farog'at edi.  
Kichiklikdin tudhub boshimg'a kulfat  
Zamoni bo'lmadim biriga ul mehnat  
Qolib yolg'iz tuman anduh ichida  
Mihindin lashkar-i anduh ichida  
Ishim bir kezklik ichra bo'ldi mushkul  
Murodim bo'lmadi hech ishda hosil  
Goho konglima tushdi ishq so'zi  
Balo-yu dard bo'ldi janga rozi.

F.Tekin bu misralar haqida shunday fikr bildirgan. “Ogahiy poetikasining asosini olgan san'at ta'limi va yashagan davrining sharoiti tashkil qiladi. Sharq madaniyatining falsafiy tamallariga tayangan bu asoslar, ijodkor haqidagi izohlarni belgilab beriadigan ahamiyatga egadir. Ogahiy ham o'zidan avval asarlar yaratgan ijodkorlardan keragidan ortiq ta'sirlangan va ular aloqador bo'lgan an'ananing davomchisi bo'ldi.” Bu fikrlar ortidan esa R.Majidiyning aytib o'tgan fikrlarini keltirib o'tgan: “Sharq she'riyatidagi murakkab usullarning ijodkorlik sirlariga butunligicha ega bo'lgan Ogahiy, o'z ijodida uning imkoniyatlaridan mukammal mahorat bilan foydalandi va g'azalnavislikning g'oyat go'zal misollarini yaratdi.”

Ogahiy ijodining yuzaga kelishida shoirning hayotga qarashi jihatidan yetarlicha ahamiyatlidir. Biroq shoirning perspektivining ko'lami bir qancha ijtimoiy va psixologik hususiyatlarni aks ettirmoqda. Bu hususiyatlarning eng aniq unsuri shoirning yashagan davrdagi ijtimoiy hayotning chegarasini chizgan, unga shakl bergan feodalizm edi.

“Horazm honligi Ogahiyning yashagan va asarlar yaratgan davrda, Orta Osiyoda feodalizm jamiyatining eng yaxshi ko'rinishini ifodalagan boshqaruv shakli edi. Shoir Ogahiyning yashagan davr uchun eng karakteristik narsa; mamlakatda

hukm surgan och-naxorlik va boshqaruvchilarning zulmi ostida ezilgan halqning faryodi, hasrati edi. Ayni shu holatni nazarga olmasdan Ogahiy ijodini ifodalovchi “Hayotdan rozi bo’lmaslik tuyg’usi”ni tushunish mumkin emas. Ogahiyning ijod tushunchasini bilishni istasak uning mazmunida mamlakatning, xalqning, haqiqiy mahzun ifodasini ko’ramiz.”

F.Tekin R.Majidiyning Ogahiy haqidagi fikrlariga shunday izoh berib o’tgan: “Ko’rib turganimizdek R.Majidiy mumtoz devon she’ri mazmunidan biri bo’lgan “Hayotdan zavq olmaslik”ni Ogahiyga hos bir hususiyat kabi ko’rsatmoqda. Shoirning yashagan davrida ro’y bergan ijtimoiy hodisalar ijodkorni har qancha ta’sirlantirsada bu vaziyat tamoman realist qarash jihatidan izohlanmaydi. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki Majidiyning bu tasqiqlari rasman ideologiya bo’lgan komunizmning an’anaviy qarashi ostida qilingan ekanligi va bu ideologiyaga hizmat qilish tuyg’usi bo’lganligidir.”

Ko’rib turganimizdek F.Tekin Majidiyning fikrlariga u qadar qo’shilmaydi. Bu yerda urg’u asosan ijodkor yashagan davrga berilmoqda va shundan kelib chiqib fikr bildirilmoqda.

Tadqiqotchi Ogahiyning hayotini uning g’azallarini tahlil qilib qanday kechganligini o’rgandi. Va g’azal tahlili davomida Ogahiyning g’am anduh ichida yashagan degan fikrga keldi.

Dahr kasri kim haqiqatda ko’hna vayronadir  
Oni har kim maskan etmak istadi devonadur  
Onda har sham ki roshan bo’lg’usidir kechalar  
Qovrulib o’z yog’iga boshdin oyog’i yonadur.  
Dahr uyi bunyod kim suv uzra mahkum emas  
Onda kirgan el hovotirdin omon bir dam emas  
Bu sifatlig’ o’y aro har kim ki maskan ayladi  
Hotiri onin havotirdin dam-i bir g’am emas  
Ogahiy o’zini faqirlarning vakili va ularning so’zchisi sifatida qabul qilingandir.  
Bu vaziyat uning uchun fazilatdir:

Ogahiy bo’lsa tan emas faqir eli gar mutimiz  
Bizki bu kun jahon aro kishvari faqi shohimiz  
Masjidda namoz o’qib mudom ey zohid  
Gar topmas ersang murod u kam ey zohid  
Ihlos birla kirib harobat ichra  
Soqi qo’lidan ich to’la jam ey zohid

F.Tekin ijodkorning bu misralari haqida shunday fikrlarni keltirib o’tadi: “Ogahiy san’atida islomning musulmonlar uchun ham “farz” ham da “qarz” ekanligi aniq bir til bilan aniqlangan fikrlar ham bordir.”

Bahor ayyomi bo'lmush ayla kim bog'-i eram shahra  
Yeridur sayr uchun ey gul-chahin qo'ysang qadam shahra  
Esib har saridin bo'stonlar ichra ruh-parvar yel  
Masiha mu'jizidin her nafas urg'usi dam shahra  
Rayohin uzra suvlar oqibon kavshar kabi har yon  
Emas firdavsdin fayz-u tarovat ichra kam shahra  
Ogahi poetikasida sevgi bilan aloqador bo'lgan har tuyg'u "ishq va mashuqa"  
vositasida ifodalangan. Ogahiyning tasvirlagan ishq, dunyodagi butun  
lazzatlarni, hayoti, inson go'zalligini va o'zini sevadigan, bu sevgiga butun qalbi  
bilan bog'langan, nozik, yurak urishlarini chuqur shaklda ifodalovchi jonli borliq  
ekanligini Tekin ham tasdiqlagan.

Hushdir bahor mavsumining aysh chog'ida  
O'z yeri birla bo'lsa kishi vasl bog'ida  
Sayr etsa goh dil-berning elgini tutub  
Bog'-u visol gulshanining so'l-u sag'ida  
Goh shavq birla tersa ko'rib kam gullarni  
Iqbol-u baht gulining har budog'ida

"Ogahiy devonidagi bir necha she'rida "may" tushunchasiga joy bergan. Uning  
"sharbat", "qadah" radifli g'azallari ham bor. Bularning hammasi shoirning  
rindlik fikri bilan aloqador. Ammo bu fikr insonlarni ichishga tashviq etish  
maqsadida emas. Ma'lumki "may" islom dinida harom qilingandir. Ogahiy "may"  
bilan bog'liq she'rlarida asosan din va din ahlining riyokorliklarini namoyon  
qilish maqsadini ko'zlagandir. Ogahiy lirikasi nihoyat ta'sirchan. Uning lirikasini  
o'qir ekan, kishi hech qanday zo'rlik, mashaqqat mahsuli tuyg'usini sezmaydi.  
Ulat go'yo buloqdan ravon oqib chiqadi. Bunga Ogahiy mahorat orqasida, ya'ni  
g'azalda ko'rsatilgan maqsadga barcha she'riy vositalar, formal talablarni  
bo'ysundirish natijasida erishgan.

Xulosa

Ogahiy g'azallari darhaqiqat chuqur ilhom natijasidir. Shoirga bu ilhomni  
bag'ishlagan real hayot, ulug' gumanizm va xalqqa xizmat qilish g'oyasidir. Ana  
shunday olijanob maqsadni ko'zlayotganligi, faqat shu maqsad uchun shoirlikni  
vosita qilganligi tufayli Ogahiy chuqur mazmunli, ta'sirli, badiiy yuksak g'azallar  
yarata oldi. Buning uchun o'zbek tili boyliklaridan, o'zbek tili xususiyatlaridan  
yaxshi foydalandi. Uning barcha ijodida mazmun birinchi navbatda bo'lib, shakl  
unga bo'ysundirildi. Bu jihatdan ham Ogahiy o'zbek xalqi o'tmish adabiyotida  
yaxshi asarlar yaratgan istedodli shoir sifatida faxrli o'rinni egallaydi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Köprülü F. “Çagatay Edebiyatı” (İA, 1945, III, -b. 322-323).
2. Köprülü F. “Türk Edebiyatına Umûmi Bir Bakış” (Birinci Türk Tarih Kongresi, İstanbul 1932, -s. 320).
3. Majidiy R. Muhammad Rizo Ogahiy // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1968. - №3. -B.51.
4. Tekin F. “Ogahiy devoni (“Ta’vizu’l-oshiqin”) ning lisoniy xususiyatlari (Tovush va tuzilishi)” dok.dissert. 2001. – b 5.